

XITOV TILIDA UNDOV SO‘ZLARNING SEMANTIK GURUHLANISHI VA ULAR HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR

Tashmuxeimedova Dildora Aziz qizi,
Oriental universiteti G‘arb tillari kafedrasida stajyor-o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya:

Maqolada xitoy olimlarining xitoy tilida undov so‘zlarni ma‘naviy jihatdan guruhlarga bo‘lish masalasida bildirgan asosli fikrlari o‘rganilib, ularning nazariyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: leksema, xursandchilik undovlari, g‘am-qayg‘u undovlari, xo‘rsinish undovlari, savol-javob undovlari, sof va vazifadosh undovlar.

Insoniyat paydo bo‘lganidan to bugungi kungacha so‘zlashuv davomida o‘zining biror vaziyat yoki holatga munosabatini ifodalash uchun turli xil so‘zlardan foydalanib kelgan. Biror tilni mukammal bilmay turib ham aynan his-hayajonni ifodalab beruvchi so‘zlar yordamida turli xil munosabatni bildirish mumkin. Tilning paydo bo‘lishi haqidagi bir nechta farazlardan biri ham aynan undovlar haqidagi farazdir. Bu faraz qadimiy bo‘lib, uning asosida hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlari yotadi. Bu faraz asoschilarining fikricha, ibtidoiy davr odamlari turli hayvonlarning tovushlari, baqiriq-chaqiriqlarini o‘rganib, ularga taqlid qilib o‘zlarining ichki kechinmalari, his-tuyg‘ularini ifoda etgan bo‘lib, uning asosida undovlar paydo bo‘lgan. Biroq, undov so‘zlar barcha tillarda bir xil bo‘lmay, har bir millatning madaniyati, an‘analari va tarixiga asoslangan holda, undovlar ham turli tilda o‘zini turlicha namoyon etadi.

Xitoy olimi Li Jinxi (黎锦熙) his-hayajon so‘zlari ta‘rifiga to‘xtalib, nutq vaqtida biror holatga nisbatan so‘zlovchida paydo bo‘lgan, vaziyatdan xursand yoki xafalik, hayron bo‘lish va qo‘rquv kabi o‘z tuyg‘ularini aks ettirgan so‘zlar (so‘zlovchidan chiqqan ovoz)ni his-hayajonni bildiruvchi so‘zlardir, deb ta‘riflaydi. His-hayajon so‘zlari mustaqil bo‘lib, gap yoki gapdagi boshqa so‘zlar bilan aloqaga kirishmaydi va tub mohiyatan hech qanday ma‘no anglatmaydi.

Li Jinxi his-hayajonni ifodalovchi so‘zlarni ma‘nosiga ko‘ra 5 ta turga bo‘ladi.¹

¹新著国语文法 *Xīnzhe guóyǔ wénfǎ* 黎锦熙 *Lǐjīn xī*. – 湖南教育出版社, 2007, 17 – 18.



1. Ajablanish va hayrat undovlari (表惊讶或赞叹 *Biǎo jīngyà huò*): 呵 *hē*, 喔 *ō*, 哦 *ó*, 噢 *huō*, 吓 *xià*, 嘎 *á*, 哑 *yǎ*, 啊 *a*

老残慌忙睁开眼睛，楞了一道：“呀！”原来是一梦。*Lǎocán huāngmáng zhēng kāi yǎnjīng, léngle yīdào: Ya yuánlái shì yī mèng.* – Lao Tsan shosha-pisha ko'zlarini ochdi: “**Voy!**” – bu tush edi.

2. G'am - qayg'u undovlari (表伤感或病情 *biǎo shānggǎn huò bìngqíng*): 唉 *āi*, 哎 *āi*, 暖 *āi*, 嗨 *hài*, 咳 *hāi*

“唉！”天天为了这两顿吃，就得把人磨死！“*Āi!*” *Tiāntiān wèile zhè liǎng dùn chī, jiù déi bǎ rén mó sǐ!* – **Eh!** Ikki mahal taomni deb har kuni insonlar qurbon bo'lishyapti.

3. Xursandchilik undovlari (表欢笑或讥嘲 *biǎo huānxiào huò jīcháo*): 哈哈 *hāhā*, 呵呵 *hēhē*

哈哈！”太不值得了。“*Hāhā!*” *Tài bù zhídele.* – Haha! Bunga umuman arzimaydi.

4. G'azab undovlari (表愤怒或鄙斥 *biǎo fènnù huò bǐ chī*): 呸 *pēi*, 哼 *hēng*, 啧 *zé*, 啐 *cùi*

“哼！”本来，钱轮到了我手里，来早已成了汤汤水水了。“*Hēng!*” *Běnlái, qián lún dào le wǒ shǒu lǐ, lái zǎo jǐ chéng le tāng tāng shuǐ shuǐle.* – **Eh!** Avvaliga, pul mening qo'limda edi, endi u sho'rvaga aylanib qoldi.

5. Savol va javob undovlari (表呼问或应答 *biǎo hū wèn huò yìngdá*): 唯 *wéi*, 哼 *hēng*, 嗯 *ń*, 唵 *ǎn*

“唯！”你是何先生吗？“*Wéi!*” *Nǐ shì Hé xiānshēng ma?* – **Kechirasiz**, siz janob He misiz?

Li Jinxining bu tariqa guruhlarga bo'lishi qisqa va lo'nda bo'lib, o'quvchini chalg'itmaydi. Ko'pgina undov so'zlarning ma'nolari yaqinligi bois ham yaxlit holda guruhlagan, biroq ba'zi kamchiliklarga ham yo'l qo'ygan. Tilshunos olim nutqiy odat tusiga kirgan, kundalik hayotimizda doimo qo'llaydigan so'zlarni kiritmagan. U faqatgina turli hissiyotni anglatuvchi tovushlarnigina turlarga ajratgan, xolos. Norozilikni bildiruvchi (唉 *āi* 唵 *kuài*), e'tiborni jalb qiluvchi (咄 *yě*, 嘎 *á*)



undovlar va boshqa turkumdan ma'no ko'chishi orqali undovga aylangan so'zlarni hisobga olmagan. Shu bois Li Jinxining guruhlarga ajratishiga qo'shilmaymiz.

Bundan tashqari, "Hozirgi amaliy xitoy tili grammatikasi" kitobida yozilishicha, undov so'zlar 9 ma'noviy guruhga ajraladi².

1. Qoniqish va mamnuniyat undovlari (表示得意, 高兴, 欢乐 *biǎoshì déyì, gāoxìng, huānlè*): 哈哈 *hāhā*, 嗨嗨 *hē hē*, 嘿嘿 *hēihēi*. Bu so'zlar asosan iqtiboslarda keng qo'llanilib, birinchi qismi ohang bilan, ikkinchi qismi esa yengil talaffuz etiladi.

“哈哈，你这个坏小子。”人们笑得更响了。“*Hāhā hā, nǐ zhège huài xiǎozi.*” *Rénmen xiào dé gèng xiǎngle.* – “Hahaha, sen yomon bolaniyey.” – odamlar balandroq ulib yubordi.

2. Tushkunlik va g'am-qayg'u undovlari. (表懊恼, 叹息, 哀伤 *biǎo àonǎo, tànxi, āishāng*): 唉 *āi*, 嗨 *hāi*, 咳 *hāi*.

唉，这真是一个不可弥补的损失。*Āi, zhè zhēnshi yīgè bùkě míbǔ de sǔnshī.* – Eh, bu chindan ham tiklanmas yo'qotish.

3. Zavq va havas undovlari (表示赞叹, 羡慕 *biǎoshì zàntàn, xiànmù*): 喝 *hē*, 呵 *hē*, 嗨 *hē*, 啊 *a*, 嗯 *ń*, 啧啧 *zé zé*.

嗯，你这次考试成绩还不错，够上优等了。*ń, nǐ zhè cì kǎoshì chéngjī hái bùcuò, gòu shàng yōuděngle.* – O, bu safargi imtihon baholaring chakki emas, yetarlicha yaxshilanibdi.

4. Hayrat undovlari. (表示惊讶 *biǎoshì jīngyà*): 哎呀 *āiyā*, 哎哟 *āiyō*, 喔唷 *ō yō*, 呀 *ya*, 哦 *ó*, 嗨 *hē*, 嚯 *huō*, 咦 *yí*.

哎呀，老玛丽，是你呀，咱们有五年没见了吧。*Āiyā, lǎo mǎlì, shì nǐ ya, zánmen yǒu wǔ nián méi jiànle ba.* – Iye, Mali honim sizmi, biz siz bilan 5 yil ko'rishmadik.

5. Norozilik, shikoyat undovlar. (表示不同意, 埋怨或申斥 *biǎoshì bù tóngyì, mányuàn huò shēnchì*): 唉 *āi*, 哎呀 *āiyā*, 哼 *hēng*.

哼，你还睡懒觉哇，看几点钟了。*Hēng, nǐ hái shuǐlǎnjiào wa, kàn jǐ diǎn zhōngle.* – Obbo, haliyam uxlab yotibsan a, qara soat necha bo'ldi.

² 实用现代汉语语法 *Shíyòng xiàndài hànyǔ yǔfǎ* 刘月华, 潘文娉, 故鞞 – 商务印书馆出版社, 2001, 441-448.



6. Nafrat va g'azab undovlari. (表示轻蔑，不满或气愤 *biǎoshì qīngmiè, bùmǎn huò qīfèn*): 哼 *hēng*, 呸 *pēi*, 呵 *hē*, 喝 *hē*.

呸，你胡说，他可不是那样的人。 *Pēi, nǐ húshuō, tā kě bùshì nà yàng de rén.* –

Bah, aldayapsan, u bunday odam bo'lishi mumkin emas.

7. Xabardorlik va tushunganlikni ifodalovchi undovlar. (表示醒悟，领会 *biǎoshì xǐngwù, lǐnghuì*): 噢 *ō*, 唔 *wú*, 嗯 *wú*, 啊 *a*.

噢，我想起来了。 *Ō, wǒ xiǎng qǐláile.* – Vo, topdim.

8. Chaqirish va javob undovlari. (呼唤，应答 *hūhuàn, yìngdá*): 喂 *ei*, 嗯 *ng*, 哎 *āi*, 嘿 *hēi*, 喂 *wèi*.

喂，你在这儿，我马上去。 *Ei, nǐ zài zhè'er, wǒ mǎshàng jiù qù.* – Hoy, o'sha yerda bo'lib tur, men tezda boraman.

9. Savol undovlari. (表示追问或出乎意料 *biǎoshì zhuīwèn huò chū hū yìliào*): 嗯 *eng* (kutilmagan gapni eshitib tushunmaganda, qatya so'rash uchun qo'llaniladi), 啊 *a* (yaxshi eshitilmay, tushunmaganda, qayta so'rash uchun qo'llaniladi).

嗯，说话呀，怎么了？ *Ń, shuōhuà ya, zěnmeliǎo?* – Hoy, gapirsang-chi, nima bo'ldi?

啊，什么事，再说一遍。 *A, shénme shì er, zàishuō yībiàn.* – A, nima bo'ldi, yana bir marta qaytar.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 新著国语文法 *Xīnzhe guóyǔ wénfǎ* 黎锦熙 *Lǐjīn xī*. – 湖南教育出版社, 2007, 17 – 18.
2. 实用现代汉语语法 *Shíyòng xiàndài hànyǔ yǔfǎ* 刘月华, 潘文娱, 故鞞 – 商务印书馆出版社, 2001, 441-448.
3. 中国语法理论 *Zhōngguó yǔfǎ lǐlùn* (第一卷) *yī juàn* 王力文集 *Wáng lì Wénjí dì*. – 山东教育出版社出版, 1984.
4. 现代汉语词典：2002年增补本 (大字本)/中国社会科学院语言研究所词典编辑室编。—北京：商务印书馆、2002、1787页
5. 现代汉语词典：商务印书馆创立115周年纪念版/中国社会科学院语言研究所词典编辑室编。—6版。—北京：商务印书馆、2012、1874页